

ABDULHAMID NURMONOVNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI

Maxsudova Nafisa

O‘zMU Filologiya fakulteti Lingvistika yo‘nalishi

(o‘zbek tili) 2-kurs magistranti

mohinura.rr.01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan va sistem tilshunoslik asoschisi bo‘lgan yetuk tilshunos olim Abdulhamid Nurmonovning ilmiy merosi va o‘zbek sistemaviy tilshunosligining shakllanishida olinning o‘rni, ushbu jarayonda o‘zining original nazariy qarashlari, beqiyos filologik bilimi, kuchli tajriba va malakasi bilan tildagi yangiliklarni nozik lingvistik intuitsiyasi orqali chuqur tahlil va talqin etib, ilm-fanda jonbozlik ko‘rsatgan, o‘zbek tilshunosligining barcha sohalarida nazariy fikrlari bilan ajralib turganligi xususida qisqacha fikr yuritimiz.

Kalit so‘zlar: Sistema, an’anaviy tilshunoslik, nazariy grammatika, semantik shturm...

THE ROLE OF ABDULHAMID NURMONOV IN UZBEKI LINGUISTICS

Abstract: In this article, the scientific legacy of Abdulhamid Nurmonov, a mature linguist who made a great contribution to the development of Uzbek linguistics and the founder of systematic linguistics, and the role of the scientist in the formation of Uzbek systematic linguistics, his original theoretical views, and unparalleled philological knowledge in this process, who, with his strong experience and skills, deeply analyzed and interpreted the innovations in the language through his fine linguistic intuition, showed enthusiasm in science, distinguished himself with his theoretical ideas in all areas of Uzbek linguistics.

Key words: System, traditional linguistics, theoretical grammar, semantic storm...

РОЛЬ АБДУЛХАМИДА НУРМОНОВА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫЧЕНИИ

***Аннотация:** В данной статье научное наследие Абдулхамида Нурмонова, зрелого лингвиста, внесшего большой вклад в развитие узбекского языкознания и основоположника систематического языкознания, и роль ученого в становлении узбекского систематического языкознания, его оригинальные теоретические взгляды, и беспримерные филологические познания в этом процессе, который своим сильным опытом и навыками глубоко анализировал и интерпретировал новшества в языке через свою тонкую лингвистическую интуицию, проявлял энтузиазм в науке, отличился своими теоретическими идеями во всех областях узбекского языкознания.*

***Ключевые слова:** система, традиционная лингвистика, теоретическая грамматика, семантическая буря...*

Kirish. Abdulhamid Nurmonov (1942. Andijon) – tilshunos, o‘zbek sistemaviy tilshunosligini yuqori bosqichga olib chiqqan olim. Filologiya fanlari nomzodi(1973), filologiya fanlari doktori(1983), professor Abdulhamid Nurmonov Farg‘ona davlat pedagogika instituti (hozirgi Farg‘ona davlat universiteti) tarix-filologiya fakultetida tahsil oldi(1963). Harbiy xizmatni o‘tab kelgach, Andijon davlat pedagogika instituti (hozirgi Andijon davlat universiteti)ga ishga keldi. Ushbu o‘quv dargohidagi 45 yillik faoliyati davomida A.Nurmonov o‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchiligidan professor darajasiga ko‘tarildi. A. Nurmonovning ilmiy asarlari o‘zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, morfonologiya, morfemika, leksikologiya va o‘zbek tili grammatikasi masalalariga bag‘ishlangan. Professor A. Nurmonov o‘zbek tilining turli sathlari bo‘yicha qalam tebratish bilan birga, ta‘lim tizimida ona tili o‘qitishni rivojlantirish borasida ham kattagina ishlar amalga oshirdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlarning tahlili va metodologiya. (Литературы и методология/ **Methods**) Yuqoridagi fikrimizning dalilini ustozning “Проблеми системного исследования синтаксиса узбекского языка”, “Gap haqidagi sintaktik nazariyalar”, “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi”, “O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi”, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis”, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya”, “Tilshunoslik va tabiiy fanlar”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Lingvistik belgi nazariyasi”, “Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari”, “Tilshunoslik nazariyasi”; “Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari” nomli asarlari; o‘rta maktablarning V-IX sinf o‘quvchilari uchun “Ona tili”, Qirg‘izistondagi o‘zbek maktablarining V, VII, IX, X, XI sinf o‘quvchilari uchun

“O‘zbek tili”, akademik litseylar uchun uch jildlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kabi darsliklarida ko‘rishimiz mumkin.[5: 2012]

Olim o‘zining qariyb 50 yillik ilmiy faoliyati davomida tilshunoslikning deyarli barcha sohalari bo‘yicha izlanishlar olib bordi. A.Nurmonov XX asr oxiri XXI asr boshlarida o‘zbek tilshunosligi haqida to‘xtalib Ayub G‘ulomov asos solgan o‘zbek ilmiy tilshunosligi yutuqlarini e‘tirof etganligi va unga tayangan holda, o‘zbek tilining ichki struktur belgilarini yoritishga yordam beradigan yangi tadqiqot metodlarini qo‘llashga intilish kuchayganligini aytib o‘tgan va bu tadqiqot metodlarini nazariy jihatdan asoslagan holda ilmiy tadqiqotlar olib borib amaliyotga tatbiq etgan. Ustozning o‘zbek tilshunosligi yuzasidan amalga oshirgan fundamental tadqiqotlari asosidagi ilmiy-nazariy xulosalari turkiyshunoslik va umumiy tilshunoslik fanlariga rivojiga qo‘shilgan katta hissadir.

O‘zbek sistemaviy tilshunosligining shakllanish va rivojlanishi professor nomi bilan bog‘liqdir. U an‘anaviy tilshunoslik erishgan yutuqlarni yuksak baholagan va uning materiallaridan samarali foydalangan holda, o‘zbek sistemaviy tilshunosligini yuqori bosqichga olib chiqdi. A.Nurmonov an‘anaviy va struktur tilshunoslik haqida o‘rinli o‘xshatishlar qo‘llab, bu ikki yo‘nalish xuddi ikki uloqchi ot kabi o‘zbek tilshunosligi aravasini tortib ketyotganligini, ular bir-birini mutlaqo inkor etmasligini aytgan. Ular bir-biriga tayanishi va bir-biridan oziqlanishini ta‘kidlaydi.[8:2006] Sistemaviy-struktur tilshunoslikning funksional, glossematik va deskriptiv maktablarining ratsional tomonlarini umumlashtirgan holda, o‘ziga xos lingvistik kontseptsiya yaratdi. Ustozning “Lingvistik belgi nazariyasi” (2008), “Tilshunoslik, nazariyasi” (2008), “Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari” (2009) kabi asarlari yaratilishiga umumiy tilshunoslikning nazariy jihatlari asos bo‘lib xizmat qilgan, ularda jahon tilshunosligiga oid bo‘lgan nazariy qarashlar o‘zbek tilshunosligiga bevosita tatbiq etilgan. Aniqroq qilib aytganda, xususiy tilshunoslikka taalluqli muammolar yuqoridan – umumiy tilshunoslik xulosalariga tayangan holda hal qilingan. [9:2011]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, tilshunoslikda tub burilish yasagan sistemaviy yondashuvning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishida va turli sathlarda faol tatbiq etilishida professor A.Nurmonovning xizmatlari juda katta. 1955-yilda AQShda L.fon Bertalanfining “Sistemalarning umumiy nazariyasi” kitobining nashr etilishi XX asrda barcha fanlar metodologiyasida muhim voqea bo‘ldi. Bu jarayon boshqa sohalar kabi tilshunoslik sohasini ham chetlab o‘tmadi, balki sistemaviy yondashuv jahon tilshunosligida birdek e‘tirof etildi. Bu xususida ko‘pgina olimlar “qadimgi dunyoda mantiq fanining shakllanishi va F.Bekon nomi bilan bog‘liq bo‘lgan induktiv metodologiyaning yuzaga kelishi kabi fenomenlarga qiyoslash mumkin”[4:2012] deb yozdilar.

Natijalar (Результаты/Results). Abdulhamid Nurmonov tilshunoslikning umumnazariy masalalari bo'yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Professorning barcha ilmiy tadqiqotlari markazida tilga sistem-struktur yondashuv turadi va bu yondashuv uchun an'anaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlar asos bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, sistemaviy yondashuv tilshunoslik fanida inqilobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Professor A.Nurmonovning "O'zbek tili sintaksisini sistemali tadqiq etish muammolari" monografiyasi, xususan, turli jurnal va konferensiya to'plamlarida e'lon qilingan tilni sistemali o'rganishga bag'ishlangan turkum maqolalari o'zbek tilshunosligida o'ziga xos "metodologik refleksiya"ning, metodologik yangilanishning muhim tarkibiy qismini tashkil etgan va bu yo'nalishdagi juda ko'plab tadqiqotlarning yaratilishiga zamin bo'lgan.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Abdulhamid Nurmonovning sistem-struktur tilshunoslik borasida bildirgan fikrlari bilan tanishar ekanmiz, ustoz tilning belgilar sistemasi ekanligini barcha tilshunos olimlar e'tirof etgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida belgilar nazariyasi haqidagi qarashlar barchasi jamlangan yaxlit asar yo'qligini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, ayrim tilshunoslar belgi haqidagi ta'limotni noto'g'ri talqin etayotganliklarini e'tiborga olgan holda, lingvistik belgi va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari: belgining erkinligi va ketma-ketligi, diskretlik xususiyati; o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik jihatlari xususida, shuningdek, uning strukturasi haqidagi nazariy qarashlarini o'zbek tili materiallari asosida yoritib beradi va bu qarashlar bugungi kunda tilshunosligimizdagi ko'pgina tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, XX asrning 70-yillari tilshunoslikda "semantik shturm" davri deb e'tirof etiladi.[4:2012] Bu davrda asosiy e'tibor lingvistik birliklar semantikasini o'rganishga qaratildi. Buning natijasida fonosemantika, leksik semantika, morfosemantika, sintaktik semantika kabi yangi yo'nalishlari maydonga keldi. Til tadqiqidagi semantik yo'nalishga birinchilardan bo'lib chex olimi S.Kartsevskiy asos solgan edi.

Lisoniy birliklarning shakl va mazmun tuzilishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni sintaktik sath materiallari asosida tadqiq qilgan Abdulhamid Nurmonov har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat ekanligi, shu kunga qadar sintaktik tadqiqotlarda asosan gapning shakliy tomonigagina e'tibor qaratilgani, faqat ayrim o'rinlardagina mazmun e'tiborga olinganini ta'kidlab o'tgan. Ustoz sintaktik birliklarning shakliy va mazmuniy tuzilishi hamda ular o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi va shu asosda sintaktik sathni tadqiq etishni asosiy vazifa deb bildi. Natijada professorning "Gap haqidagi sintaktik nazariyalar" (1988), "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" (1991) (hammualliflikda), "O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)" (2001) (hammualliflikda) kabi ilmiy asarlari maydonga keldi. Professor

ham umrining asosiy qismini ona tilimizni tartibga keltirishday xayrli ish bilan shug'ullanishga bag'ishladi. Professor Abdulhamid Nurmonovning ilmiy merosini, ilmiy maqolalarini o'qish, ya'ni chuqur mohiyatini anglab o'qish kitobxondan alohida ilmiy bilim, terminologik baza va o'ziga xos ilmiy yondashuv talab etiladi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ba'zi olimlar o'z ijodxonalaridan chiqmagan holda, asarlar yozib o'zidan boy ilmiy meros qoldiradilar, ba'zilari esa o'zlari ma'lum doiradagi maqsadiga erishgandan keyin ilmni tark etadilar. Biz ilmiy merosini o'rganayotgan inson esa uchinchi guruhga kiradilar, ya'ni ilm-fan tilimiz taraqqiyoti uchun umrini bag'ishlagan fidoiylarcha mehnat qilib biz uchun ulkan ilmiy meros qoldirgan ustozdir. Biz mana shu ilmiy maqolamizda o'zbek tilshunosligining zabardast vakili, umrini "til dardi" bilan yashashga baxshida qilgan professor Abdulhamid Nurmonovning o'ziga xos qarashlarining bir qisminigina ochib berishga harakat qildik. Ushbu maqola o'zbek tilshunosligidagi fonetik, fonologik hamda morfonologik sathlarni o'rganishda va o'zbek filologiyasidagi ba'zi munozarali masalalarga qisman oydinlik kiritish uchun muhim nazariy ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
2. Лисоний бирликларда умумийлик-хусусийлик, моҳият-ҳодиса диалектикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1995. - № 1.
3. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг актуал масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. - № 5.
4. Нурмонов А. Танланган асар. 1- жилд. 2012
5. Нурмонов А. Тилшуносликнинг назарий ва амалий муаммолари бўйича танланган мақолалар. 3- жилд. 2012.
6. Қурбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва сода гап қурилишининг талқини. Тошкент, 2001.
7. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.
8. Структурализм мактабларининг ўзига хос жиҳатлари / Тилшуносликнинг долзарб масалалари: илмий мақолалар тўплами, III, ЎЗМУ, 2006.
9. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (Республика илмий ва амалий анжумани материаллари). – Андижон, 2011.